

**OILAVIY MUHITDA GENDER TENGLIKNI  
TA'MINLASHNING YOSHLAR MUOMALA  
MADANIYATIGA TA'SIRI**

Murtazayeva Shaxloxon Muzaffar qizi  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
doktoranti

**THE EFFECT OF PROVIDING GENDER  
EQUALITY IN THE FAMILY ENVIRONMENT ON  
YOUTH'S CULTURE OF INTERACTION**

Murtazayeva Shaklokhon Muzaffarovna  
Doctoral student of Samarkand State University named after  
Sharof Rashidov

**ВЛИЯНИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО  
РАВЕНСТВА В СЕМЕЙНОЙ СРЕДЕ НА  
КУЛЬТУРУ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МОЛОДЕЖИ**

Муртазаева Шахлохан Музаффаровна  
Докторант Самарканского государственного университета  
имени Шарофа Рашидова



aminaxonolimova@gmail.com  
<https://orcid.org/0009-0005-3944-720X>

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada oilaviy muhitda gender tenglikni ta'minlashning yoshlari muomala madaniyatiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, oilaviy muhitda gender tenglikni ta'minlashning zamoniaviy yondashuvlari tahlil etilgan.

*Kalit so'zlar:* Gender, jins, oila, tenglik, munosabat, muomala, muloqot, individual yondashuv, pedagogika, psixika.

*Abstract.* This article presents information about the impact of ensuring gender equality in the family environment on the behavior culture of young people. Modern approaches to ensuring gender equality in the family environment are also analyzed.

**Keywords:** Gender, sex, family, equality, attitude, treatment, communication, individual approach, pedagogy, psyche.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о влиянии обеспечения гендерного равенства в семейной среде на культуру поведения молодежи. Также анализируются современные подходы к обеспечению гендерного равенства в семейной среде.

**Ключевые слова:** Гендер, пол, семья, равенство, отношение, обращение, общение, индивидуальный подход, педагогика, психика.

**Kirish.** Sayyoramiz aholisining yarmini ayollar, qizlar tashkil etadi, bu insoniyat salohiyatining yarmi, degani. Demakki har bir oilada turli jins vakillari birga yashaydilar. Shu nuqtai-nazardan gender tenglik insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lib, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda, barqaror rivojlanishga asoslangan holda inson salohiyatini boricha amalga oshirishda muhim o'rinn tutadi. Barcha-

mizga ma'lumki, oila inson tarbiyasida eng asosiy rol o'ynaydi, bola oilada tug'iladi, ulg'ayadi, olam haqidagi ilk tasavvurlari shakl-lanadi. Oilada insonning his-tuyg'ulari tarbiyalanadi, olam, unda insonlarning o'rni haqidagi qarashlari paydo bo'ladi. Xuddi shu davrda bola ongida gender stereotiplar ham shakllanishni boshlaydi. Bu stereotiplarning shakllanishida bolaga jinsiga qarab farqlanadi. O'z

navbatida bunday gender stereotiplarning inson ongida mavjudligi va xatti-harakatlarida aks etishi jamiyat, oilaning katta vakillari tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Oilada gender tenglik tamoyilini singdirishda kattalar, xususan, bolaning ota-onasida genderga oid to‘g‘ri, sog‘lom munosabatlar, qadriyatlar tizimi, dunyoqarash shakllangan bo‘lishi talab etiladi. Buni ikki jihat bilan bog‘lash mumkin. Avvalo, bolaning oiladagi eng asosiy tarbiyachilari ota va ona hisoblanadi. Agar ular bolaga gender bilan bog‘liq to‘g‘ri qarashlarni singdira olmasa, noto‘g‘ri ma‘lumotlar berib borilsa, bola ilk marotaba o‘ziga aytilgan fikrlarni eng to‘g‘ri fikr deb qabul qiladi. Shuning uchun ham bolaga yoshligidan gender tengligi tamoyilini singdirish uchun ularning ota-onasida ham shu tamoyilni singdirish kerak bo‘ladi. Yanikim, oilaviy tarbiyada shaxsiy namuna va ibrat ko‘rsatish eng asosiy ta’sir vositalaridan hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Gender (gender) anatomiq jinsiga ko‘ra erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farq. Ko‘pincha anatomiq ma’noga asoslangan, ammo har doim ham unga mos kelavermaydigan ijtimoiy bo‘linish. Jins biologik xususiyatlarga oid bo‘lib, unga ko‘ra odamlar “erkaklar” va “ayollar” toifasiga bo‘linadi...[1].

Jamiyatshunoslar gender tushunchasiga quyidagicha yondashadilar: “Gender” ijtimoiy, biologik holat bo‘lib, erkak va ayolning jinsi munosabatlari majmuasi hisoblanadi” [2].

Gender - shaxsning ijtimoiy-psixologik jinsi, uning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlarining umumiyligi, muloqot va o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘ladi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqadiki, biologik jihatdan berilgan jinsdan farqli o‘laroq, “jins” psixologik va ijtimoiy toifadir, bu ikkala komponent ham inson tarbiyasi natijasida turli darajada rivojlanadi. Gender tengligi deganda, ayollar va erkaklar teng ravishda inson ekanliklarini tushunishga aytiladi va albatta oilaviy munosabatlarda, garchi ularning har biri har xil ehtiyojlarga ega bo‘lsa-da, tenglilik tamoyiliga amal qilishni anglatadi.

Klassik qarashlar tizimida gender tizimi binar tizim sifatida qaraladi: erkak (ota, boquvchi) yoki ayol (ona, beka). Ularning har biri tashqi atributlar va ichki fazilatlar, sevimli mashg‘ulotlar va ijtimoiy funksiyalarning o‘ziga xos to‘plamiga ega. Biroq, zamonaviy tadqiqotchilar genderlarning ko‘pligini

e’tirof etishadi. Shuningdek, bola tug‘ilganidanoq uning genderi belgilanmaydi, yoki kattalar uni aniqlamaydi, balki bolaning o‘zi yoshi ulg‘ayishi va o‘zini anglay boshlashi bilan yaratiladi. Buni gender tadqiqotchi klinik psixolog Diana Erenzaft ham ta’kidlaydi. Yelya universiteti gender pediatriya dasturi direktori Doktor Kristi Olezeski bolalar bilan uning jinsi haqida gaplashib boshlash uchun hech qachon erta sanalmaydi. Ikki yoki uch yoshda, bola birinchi marta o‘zini anglay boshlaydi va o‘zini o‘g‘il yoki qiz sifatida taniy boshlaydi. Shuning uchun ota-onalar o‘z farzandlariga jins haqida ko‘proq gapirib, gender stereotiplari bilan shug‘ullanishga yordam bersalar yaxshi bo‘lardi.

**Muhokama.** Oilaviy muhitda gender tenglikni ta’minalash zamonaviy jamiyatning muhim masalalaridan biridir. Gender tenglik oilada har bir a’zoning huquq va imkoniyatlari teng bo‘lishini anglatadi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan adolatli va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratadi. Oilada gender tenglikni ta’minalash yoshlar muomala madaniyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Oilada gender tenglikni ta’minalash uchun birinchi navbatda ota-onalar o‘rtasida teng huquqli va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar bo‘lishi kerak. [3]. Judith Butler ta’kidlaganidek, gender rollari ijtimoiy konstruktsiyalar bo‘lib, ularni o‘zgartirish orqali jamiyatdagи kamsitishni bartaraf etish mumkin. Shuning uchun ota-onalar bolalariga gender stereotiplariga asoslangan rol taqsimlashdan qochishlari, ularga har qanday faoliyatda o‘zlarini sinab ko‘rish imkoniyatini berishlari lozim. Masalan, o‘g‘il bolalarga faqat texnika va sport bilan shug‘ullanish kerakligi, qiz bolalarga esa faqat uy ishlari va moda bilan shug‘ullanish kerakligi haqidagi stereotiplar bekor qilinishi kerak.

Oilada gender tenglikni ta’minalashning yana bir yo‘li – bu oilaviy qarorlarni qabul qilish jarayonida barcha a’zolarni teng ishtirok etishga chaqirishdir. Bu yoshlarni jamoaviy ishslash va demokratik qadriyatlarini qadriga yetishga o‘rgatadi. Simone de Beauvoir ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikka erishish uchun oilada hamma a’zoning fikrini tinglash va hurmat qilish zarurligini ta’kidlaydi. Shu tariqa, oilaviy yig‘ilishlarda hamma a’zolar, jumladan, bolalar ham o‘z fikrlarini ochiq-

oydin ifoda etishlari va ularni inobatga olishlari lozim.

Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-onasi obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. [4].

Gender tenglikni ta'minlashning yana muhim jihatlaridan biri bu ta'lim va tarbiya jarayonida o'g'il va ayol bolalarga teng imkoniyatlar yaratishdir. Carol Gilligan ta'kidlaganidek, qiz va o'g'il bolalar o'rtasidagi psixologik farqlar ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi, lekin bu farqlar teng imkoniyatlar bilan bartaraf etilishi mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar bolalarga har bir faoliyat turiga teng munosabatda bo'lishlari, ularni qiziqishlariga ko'ra rag'batlantirishlari zarur. Genderga yo'naltirilgan innovatsion ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloq qilish o'g'il va qiz bolalarning erkin, intellektual, ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gender yondashuvning pedagogikada qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talablariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishga ko'maklashadi.

Yoshlar muomala madaniyatiga oilaviy muhitda gender tenglikning ta'siri katta. Gender tenglikka asoslangan oilada voyaga yetgan yoshlar, odatda, boshqalarning huquq va imkoniyatlarini hurmat qilish, tenglik va adolat tamoyillariga amal qilish kabi qadriyatlarni qadriga yetadi. Bu esa ularning ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishiga

yordam beradi. O'zaro hurmat va tenglikka asoslangan munosabatlar yoshlarning shaxsiy o'sishi, ijtimoiy moslashuvchanligi va ijobiy muomala madaniyatini rivojlantiradi.

**Xulosa** qilib aytganda, oilaviy muhitda gender tenglikni ta'minlash jamiyatdagи ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlash uchun zarurdir. Bu jarayon yoshlar muomala madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Gender tenglikka asoslangan oilalarda voyaga yetgan yoshlar kelajakda tenglik, adolat va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qiladigan yetuk shaxslar bo'lib yetishadilar.

### Foydalananligan adabiyotlar:

1. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: Олий ўқув юртлари учун тавсия қилинади. //Илмий мухаррир: проф. У.Абилов; Рус тилидан қисқартирилган таржима: доц. З.Бобоева, З.Усмонова.-Т.: «Ўзбекистон», 2003.-276 б.
2. Гидденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма / Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. Т.: “Шарқ”, 2002.190-б.
3. Столин В.В., Бодалев А.А. и др. Семья в психологической консультации: Опыт и проблемы психологического консультирования. Педагогика, 1989. - 208 с.
4. Oila psixologiyasi. Shoumarov G'. B. tahriri ostida. T.:2011. -244 b.

